O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

| “KELISHILGAN” | “TASDIQLAYMAN” |
| --- | --- |
| Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi: | Samarqand davlat universiteti rektori: prof. R.I.Xalmuradov |
| ________________________ | ________________________ |
| “___” __________2021 yil | “___” __________2021 yil |

5A240101 – ADVOKATLIK FAOLIYATI

MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MAXSUS FANLARDAN

# DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand - 2021

## Annotatsiya

Mazkur dastur 5240100 – Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo’nalishining 2017/2018 o’quv yilida tasdiqlangan o’quv rejasidagi “Jinoyat huquqi”, “Ma’muriy huquq”, “Ma’muriy jarayon. Ma’muriy ish yuritish” “Fuqarolik huquqi”, “Mehnat huquqi” fanlarining namunaviy dasturlari asosida tuzilgan bo’lib, 5A240101 – Advokatlik faoliyati mutaxassisligi bo’yicha o’qishga kiruvchilar uchun mo’ljallangan.

**Tuzuvchilar:**

**R.I.Mirzayev** – SamDU, Yuridik fakulteti dekani, yu.f.n.dotsent,

**D.R.Qurbonov-** Huquqshunoslik va huquq ta’limi kafedrasi mudiri, yu.f.n.dotsent.

**Taqrizchi:**

**T.Qodirov** – O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i.

Dastur Yuridik fakultetining 2021 yil 28 iyundagi 10-sonli kengash yig‘ilishida, Universitet kengashining 2021 yil 30 iyundagi 11-son yig‘ilishida muhokama etilgan va tavsiya etilgan.

# Kirish

– O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan demokratik va huquqiy islohotlarning, fuqarolik jamiyati shakllanishining yuksak talablariga, zamonaviy halqaro standartlarga javob beruvchi yuqori malakali yuridik kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy choralarni qabul qilish bo‘yicha kompleks ishlarni amalga oshirishni tadqiq etish;

– O‘zbekistonda advokaturaning rivojlanish tarixi, uni tashkil etish tamoyillari, notiqlik san’ati, advokatlik kasbi axloqiy asoslariga oid masalalarni o‘rganish;

– bo‘lajak yuristlarni advokat sifatida ishlarga tayyorlash uchun kerakli ma’lumotlarni berib borish;

– O‘zbekiston Respublikasida advokatura soxasini malakali shaxsiy-kasbiy rivojlanish darajalari zamonaviy halqaro standartlarga muofiq keluvchi advokatlarga ehtiyojini qondirish masalalarini yechimini topish;

– Jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini yuksak darajada ximoyalash;

## 1. “Jinoyat huquqi” fani bo‘yicha

Jinoyat huquqining tushunchasi, predmeti va vazifalari.

O‘zbekiston Respblikasi jinoyat huquqi predmeti, tushunchasi va ahamiyati, vazifalari. Boshqa huquq fanlari bilan aloqadorligi. Jinoyat huquqining prinsiplari. Jinoyat huquqining manbalari va tizimi. Jinoyat huquqiga doir qonunchilik tizimi.

Jinoyat tushunchasi va uning belgilari, jinoyat tarkibi.

Jinoyat tushunchasi va uning belgilari. Jinoyatning boshqa huquqbuzarliklardan farqi. Jinoyatlarni tasniflash va uning huquqiy holati. Jinoiy javobgarlik asoslari va uning boshqa huquqiy javobgarlikdan farqi. Jinoyatning sabablari. Jinoyatni oldini olish tizimi.

Jinoyat tarkibi, uning belgilari. Jinoyat obekti. Jinoyatning obektiv tomoni. Jinoyat subekti. Jinoyat subekti belgilari. Jinoiy javobgarlikda subekt yoshi. Aqli norasolik tushunchasi va huquqiy ahamiyati. Jinoyatning maxsus subekti tushunchasi. Jinoyatchining shaxsiy tushunchasi va ahamiyati. Jinoyatning subektiv tomoni. Ayb tushunchasi va uning shaklari. Qasd tushunchasi. Ehtiyotsizlik va uning turlari.

Jinoyat huquqida ishtirokchilik tushunchasi. Ishtirokchilikning obektiv va subektiv belgilari. Ishtirokchilik turlari va ularni farqlashning mezonlari. Jinoyatda ishtirokchilik shakllari.

Bir qancha jinoyat sodir etish. qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi va turlari.

Jazo tushunchasi va jazo turlari.

Jinoiy jazoning tushunchasi va belgilari. Jinoiy jazoning intizomiy jazodan, mamuriy jazodan va jamoat tasir choralaridan farqi. Jazoning maqsadlari. Jazo va uning mazmuni. Jazoning tasirchanligini oshirish shartlari va vositalari. Umumiy va maxsus ogohlantirish.

Jinoiy jazolar tizimi tushunchasi. Asosiy va qo‘shimcha jazolar. Jazo tizimi va uning turlarini rivojlantirish muammolari.

Jazo tayinlashning umumiy asoslari. Tayinlanadigan jazo hajmiga jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar tasiri. Tamom bo‘lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash. Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlash. Javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi va turlari. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralar. Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish. Jazodan ozod qilish tushunchasi va turlari. Sudlanganlik tushunchasi va uning huquqiy ahamiyati.

Voyaga yetmaganlar javobgarligi va ularni tayinlash.

18 yoshgacha bo‘lgan shaxslar sodir etgan jinoyatlar uchun qo‘llaniladigan jazolar tizimi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jarima, axloq tuzatish ishlari, qamoq va ozodlikdan mahrum qilish jazolarining qo‘llanilishi. Voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash xususiyati.

Voyaga yetmaganlarning jazodan yoki javobgarlikdan ozod qilinishi.

Majburlov choralarmi qo‘llash orqali voyaga yetmaganlarni javobgarlikdan ozod qilish, voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llaniladigan majburlov choralari turlari va ularni qo‘llash shartlari. Voyaga yetmaganlarni jazo o‘tash muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish va jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish.

Shaxsga qarshi jinoyatlar.

Hayotga qarshi jinoyatlar. Sog‘liqqa qarshi jinoyatlar. Hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlar. Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar. SHaxsning ozodligi, shani va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar. Fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar.

Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar.

Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar tushunchasi, jinoyat tarkibi, turlari. O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar

O‘zgalar mulkini talon-taroj qilish. O‘zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoyatlar. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar. Xo‘jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar tushunchasi, jinoyat tarkibi va turlari. Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarini buzish jinoyati tushunchasi. Atrof tabiiy muhitining ifloslanganligi to‘g‘risidagi malumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko‘rsatish jinoyati tushunchasi, javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlari. Atrof tabiiy muhitniing ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko‘rmaslik jinoyati tushunchasi. Atrof tabiiy muhitini ifloslantirish jinoyati tushunchasi. yer, er osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish jinoyati tushunchasi. Ekinzor, o‘rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast etkazish yoki ularni nobud qilish jinoyati tushunchasi, javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar. Hayvonot yoki o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish jinoyati tushunchasi, javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar. Suv yoki suv xavzalaridan foydalanish shartlarini buzish jinoyatining tushunchasi. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartibini buzish jinoyati tushunchasi.

Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar

Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar.

Odil sudlovga qarshi jinoyatlar. Odil sudlovga qarshi jinoyatlar turlari.

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar

Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar.

Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar.

Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar

Bo‘ysunish va harbiy shanga rioya etish tartibiga qarshi jinoyatlar. Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar. Harbiy mulkni saqlash yoki undan foydalanish tartibiga qarshi jinoyatlar. Harbiy mansabdorlik jinoyati.

## 2. “Ma’muriy huquq” fani bo‘yicha

Davlat boshqaruvi tushunchasi, funktsiyalari va asosiy printsiplari

Ijtimoiy boshqaruv mohiyati va tushunchasi. Davlat boshqaruvining ijtimoiy boshqaruvda tutgan o‘rni. Davlat boshqaruvining zamonaviy kontseptsiyalari. Davlat boshqaruvining o‘ziga xos xususiyatlari va funktsiyalari. Davlat boshqaruvi va ijro hokimiyatining o‘zaro munosabati. Davlat boshqaruvining asosiy printsiplari.

Ma’muriy huquq predmeti, usuli, tizimi va manbalari

Ma’muriy huquq tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasi. Ma’muriy huquqning tartibga solish usuli. Ma’muriy huquq tizimi. Ma’muriy huquq manbalari. Ma’muriy huquqning O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimida tutgan o‘rni.

Ma’muriy-huquqiy normalar va ma’muriy-huquqiy munosabatlar

Ma’muriy-huquqiy normalar mazmuni va tarkibi. Ma’muriy-huquqiy normalarning tasnifi. Ma’muriy-huquqiy normalarning harakati. Ma’muriy-huquqiy munosabatlar tushunchasi va xususiyatlari. Ma’muriy-huquqiy munosabatlarning turlari. Ma’muriy-huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi, o‘zgarishi va bekor bo‘lishi.

Ma’muriy huquq sub’ektlari

Ma’muriy huquq sub’ektlari tushunchasi va xususiyatlari. Ma’muriy huquqning individual sub’ektlari: fuqarolarning ma’muriy-huquqiy maqomi; davlat xizmatchilari ma’muriy huquq sub’ekti sifatida. Ma’muriy huquqning jamoa sub’ektlari: davlat organlari tushunchasi va turlari; nodavlat notijorat tashkilotlari ma’muriy huquq sub’ekti sifatida. Ma’muriy huquq sub’ektlarining huquqlarini himoya qilish.

Davlat boshqaruvining ma’muriy-huquqiy shakllari va usullari

Davlat boshqaruvining ma’muriy-huquqiy shakllari tushunchasi va xususiyatlari. Davlat boshqaruvi aktlari. Ma’muriy-huquqiy shartnomalar. Yuridik ahamiyatli xatti-harakatlar. Davlat boshqaruvining ma’muriy-huquqiy usullari mazmuni va turlari. Ishontirish – ma’muriy-huquqiy usul sifatida. Davlat majburlovi – ma’muriy-huquqiy usul sifatida.

Ma’muriy javobgarlik.

Ma’muriy javobgarlik tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari. javobgarlikning qonunchilik asoslari. Ma’muriy huquqbuzarlik tushunchasi va uning xususiyatlari. Ma’muriy huquqbuzarlikning yuridik tarkibi: ob’ekti, ob’ektiv tomoni, sub’ekti, sub’ektiv tomoni. Ma’muriy javobgarlik sub’ektlarining turlari: jismoniy shaxslar, mansabdor shaxslar, maxsus sub’ektlar. Ma’muriy jazo tushunchasi. Ma’muriy jazo choralari: jarima, ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyoni haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish; ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyoni musodara qilish; maxsus huquqdan mahrum etish; ma’muriy qamoq. Ma’muriy jazoni qo‘llash tartibi. Ma’muriy javobgarlikni istisno etuvchi holatlar. Ma’muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar. Ma’muriy javobgarlikning jamoat ta’siri choralari bilan uyg‘unlashishi. Ma’muriy javobgarlikdan ozod etish. Yuridik shaxslarning ma’muriy javobgarligi. Alohida turdagi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik. Ma’muriy javobgarlikni erkinlashtirish masalalari.

2. “Ma’muriy jarayon. Ma’muriy ish yuritish” fani bo‘yicha

Ma’muriy jarayon tushunchasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Ma’muriy yurisdiktsiya: asosiy xususiyatlari, printsiplari, tuzilishi. Ma’muriy jarayon printsiplari. Ma’muriy jarayon sub’ektlari va ularning huquqiy maqomi. Ma’muriy-protsessual normalar tushunchasi va turlari. Ma’muriy-protsessual munosabatlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Ma’muriy ish yuritish tushunchasi, uning vazifalari va turlari. Ma’muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritish bosqichlari. Ma’muriy huquqbuzarlik ishlarini qo‘zg‘atish. Ma’muriy huquqbuzarlik bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqish va ish bo‘yicha qaror qabul qilish. Ma’muriy huquqbuzarlik ishlari bo‘yicha chiqarilgan

qarorlar ustidan shikoyat berish va protest bildirish. Ma’muriy jazo choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi karorlarni ijro etish: jarima solish to‘g‘risidagi qarorni ijro etish bo‘yicha ish yuritish; ashyoni haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish va musodara qilish to‘g‘risidagi qarorni ijro etish bo‘yicha ish yuritish; maxsus xuquqdan mahrum etish to‘g‘risidagi qarorni ijro etish bo‘yicha ish yuritish; ma’muriy qamoqqa olish to‘g‘risidagi qarorni ijro etish va mulkiy zararni qoplash bo‘yicha ish yuritish.

Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta’minlash

Qonuniylik va huquq tartibot tushunchasi va xususiyatlari. Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta’minlash usullari. Davlat hokimiyati vakillik organlarining nazorati. Ijro hokimiyati organlarining nazorati. Maxsus vakolatli davlat organlarining nazorati. Davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomni ta’minlashda fuqarolarning ishtiroki.

Sanoatni boshqarish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoatni boshqarishning asosiy vazifalari. Sanoatni boshqarishning tashkiliy-huquqiy tizimi. Sanoat sohasini boshqarishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari. Korporatsiyalar, kompaniyalar, assotsiatsiyalar va boshqa sanoatni boshqarishning tashkiliy-huquqiy shakllarining huquqiy holati va ularning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi roli. Sanoatda tashkilot va birlashmalar. Sanoatdagi davlat kontroli va nazorati.

Qishloq va suv xo‘jaligini boshqarish.

Qishloq va suv xo‘jaligini boshqarishning mazmuni va bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida uning o‘ziga xos xususiyatlari. Qishloq va suv xo‘jaligini boshqarishning tashkiliy-huquqiy tizimi. Qishloq va suv xo‘jaligini boshqarishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari. Qishloq va suv xo‘jaligini boshqaruvchi davlat organlari va ularning vakolatlari.

Ta’lim sohasini boshqarish.

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish sharoitida ta’lim tushunchasi va uning tizimini tashkil etish asoslari. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim turlari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlari. Ta’lim sohasini boshqaruvchi davlat organlari va ularning vakolatlari. Ta’lim muassasasini boshqarish. Ta’lim muassasalari faoliyatida davlat kontroli.

Sog‘liqni saqlash sohasini boshqarish.

Sog‘liqni saqlash sohasini boshqarishning mazmuni. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining sog‘liqni saqlash sohasidagi vakolatlari. Sog‘liqni saqlash sohasini boshqaruvchi davlat organlari va ularning vakolatlari. Sog‘liqni saqlash muassasalarining huquqiy holati. Sog‘liqni saqlash sohasida davlat kontroli. Sanitariya-epidemiologiya nazorati.

Mudofaa va milliy xavfsizlik sohalarini boshqarish.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatidagi mudofaasi tushunchasi va uni tashkil etish asoslari. O‘zbekiston Respublikasining harbiy doktrinasi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mudofaa sohasidagi vakolatlari. Mudofaa sohasini boshqaruvchi davlat organlari tizimi va ularning vakolatlari. Umumiy harbiy majburiyat va O‘zbekiston Respublikas

Ichki ishlar sohasini boshqarish.

Ichki ishlar – davlat boshqaruvining ob’ekti sifatida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ichki ishlar sohasidagi vakolatlari. Ichki ishlar sohasini boshqaruvchi davlat organlari va ularning vakolatlari. Militsiyani tashkil etish, uning vazifalari va vakolatlari. Yo‘l harakati xavfsizligi ustidan davlat nazorati. Davlat yong‘in xavfsizligi nazorati. Pasport tizimi. Ruxsat berish tizimi.

Tashqi ishlar sohasini boshqarish.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari. Tashqi ishlar sohasini boshqarishning tashkiliy-huquqiy shakllari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tashqi ishlar sohasidagi vakolatlari. Tashqi ishlar sohasini boshqaruvchi davlat organlari tizimi. O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik

vakolatxonalarining huquqiy holati. Diplomatik vakolatxonalarning xodimlari va ularning huquqiy maqomi.

Adliya sohasini boshqarish.

Adliya sohasini boshqarishning mazmuni va uning tashkiliy-huquqiy shakllari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining adliya sohasidagi vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining huquqiy 3maqomi. Umumiy yurisdiktsiya sudlari faoliyatining tashkiliy-texnik ta’minoti. Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish. Notarial xizmatni tashkil etish. Yuridik xizmat. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish. Normativ-huquqiy xujjatlarni ekspertiza qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etish va qonun xujjatlarini kodifikatsiyalash. Advokatura.

Tarmoqlararo sohalarni boshqarish.

Iqtisodiy rivojlanish sohasini boshqarishni tashkil etish. Statistika sohasini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari. Davlat mulkini boshqaruvchi organlar. Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish sohasidagi boshqaruvning huquqiy asoslari. Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatsiyalash sohasidagi boshqaruv.

## 3. Fuqarolik huquqi fani bo‘yicha

Fuqarolik huquqi tushunchasi, tamoyillari va tizimi

Fuqarolik huquqi tushunchasi va uning bozor iqtisodiyoti munosabatlarini mustahkamlash jarayonidagi mohiyati. Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning fuqarolik-huquqiy uslubi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Fuqarolik huquqining boshqa huquq sohalaridan farqlanishi. Fuqarolik huquqining predmeti. Fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari. Fuqarolik huquqi tizimi. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqining rivojlanish bosqichlari.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar fuqarolik huquqining umumiy tavsifnomasi va rivojlanish tendentsiyalari.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligini liberallashtirish muammolari va xorijiy qonunchilikning ayrim institutlarini tatbiq etish muammolari.

Fuqarolik huquqining manbalari

Fuqarolik huquqi manbalari tushunchasi va uning turlari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – fuqarolik huquqining manbai sifatida. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining umumiy tavsifnomasi va uning tizimi. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi tomonidan chiqarilgan qarorlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari. Fuqarolik qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalar, konventsiyalar. Ish muomalasi odatlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rahbariy tushuntirishlari. Fuqarolik qonun hujjatlarining vaqt, hudud bo‘yicha amal qilishi va shaxslarga nisbatan tatbiq etilishi hamda o‘xshashlik bo‘yicha qo‘llash. Fuqarolik huquqida qonun o‘xshashligi va huquq o‘xshashligi (qonun va huquq analogiyasi). Fuqarolik huquqiy normalarni sharhlash.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar

Fuqarolik-huquqiy munosabat tushunchasi va elementlari. Fuqarolik-huquqiy munosabat mazmuni. Fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish va bekor bo‘lish asoslari. Yuridik faktlar, ularning tasniflanish shartlari va tartibi. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning turlarga bo‘linishi (tasniflanishi).

Fuqarolik huquqining sub’ekti sifatida - fuqarolar

Fuqaro (jismoniy shaxs) tushunchasi. Fuqarolarning huquq layoqati tushunchasi va mazmuni. Fuqaroning muomala layoqati tushunchasi. Emansipatsiya tushunchasi va mazmuni. Fuqaroning muomala layoqatini cheklash hollari. Vasiylik va homiylik tushunchasi hamda uning ahamiyati. Vasiylik va homiylik organlari. Vasiylar va homiylarning huquq va burchlari. Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish. Fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish. Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va vafot etgan deb e’lon qilish tartibi, shartlari va huquqiy oqibatlari. Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish haqidagi qarorning bekor qilinishi. Vafot etgan deb e’lon

qilingan fuqaro qaytib kelishining oqibatlari. Fuqarolik holati hujjatlari, uning fuqarolik-huquqiy munosabatdagi ahamiyati.

Fuqarolik huquqining sub'ekti sifatida - yuridik shaxslar

Yuridik shaxs tushunchasi va belgilari. Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati va muomala layoqati. Yuridik shaxs nazariyalari. Yuridik shaxslarning vujudga kelishi. Yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari, Yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, amaliyot va muammolar. Xorijiy davlat yuridik shaxslarining akkreditatsiya shartlari. Yuridik shaxsning organlari. Yuridik shaxsning nomi va joylashgan yeri. Yuridik shaxsning shaxsiy-nomulkiy huquqlari. Vakolatxonalar va filiallarning tashkil bo‘lish tartibi va huquqiy holati. Yuridik shaxsning javobgarligi. Yuridik shaxsning firma nomi. Ishlab chiqarish markasi. Yuridik shaxsning tovar belgilari xizmat ko‘rsatish belgilari. Yuridik shaxsni qayta tashkil etish. Yuridik shaxsni qayta tashkil etishda huquqiy vorislik. Topshirish hujjati va taqsimlash balansi. Yuridik shaxs qayta tashkil etilganida kreditorlar huquqlarining kafolatlari. Yuridik shaxsni tugatish. Yuridik shaxsni tugatish haqida qaror qabul qilgan shaxsning burchlari. Yuridik shaxsni tugatish tartibi. Kreditorning talablarini qanoatlantirish. Yuridik shaxsning nochorligi (bankrotligi).
Yuridik shaxslarning turlari. O‘z faoliyatining asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan (tijoratchi tashkilotlar). Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari to‘g‘risidagi asosiy qoidalar. To‘liq shirkat. Kommandit shirkat. Mas'uliyati cheklangan jamiyat. Qo‘shimcha mas'uliyatli jamiyat. Aktsiyadorlar jamiyatlari. SHo‘'ba xo‘jalik jamiyati. Qaram xo‘jalik jamiyati. Ishlab chiqarish kooperativlari. Unitar korxona. Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona. Operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi. Xususiy korxona. Oilaviy korxona. O‘z faoliyatining asosiy maqsadi foyda olishga qaratilmagan, tijorat bilan shug‘ullanmaydigan yuridik shaxslar (tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlar). Matlubot kooperativi. Jamoat birlashmalari. Jamoat fondlari. Muassasalar. Yuridik shaxslar birlashmalari. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari. Xolding, kontsern, korporatsiya tushunchasi va huquqiy holatlari.

Davlat – fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchisi sifatida

Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tishda, mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilishda davlatning o‘rni. Davlatning fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarda ularning boshqa ishtirokchilari bilan baravar asoslarda ishtirok etishi. Fuqarolik huquqidagi davlatga tegishli huquqiy kategoriyalar (immunitet, siyosiy erk egasi va h.k.). Davlat tuzilmalari - fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida. Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi. Davlat nomidan ishtirok etuvchi sub'ektlar. Davlatning fuqarolik-huquqiy majburiyatlar bo‘yicha javobgarligi, davlat va yuridik shaxslar javobgarligining farqlab qo‘yilishi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini izchil kamaytirib borish masalalari.

Ob'ektlar

Fuqarolik huquqlari ob'ektlarining tushunchasi va turlari. Moddiy va nomoddiy ne'matlar. Ko‘char va ko‘chmas mol-mulklar. Fuqarolik huquqlari ob'ektlarining turi sifatida - ashyolar. Ashyolar tushunchasi. Ashyolarning tasnifi va uning huquqiy ahamiyati. Qimmatli qog‘ozlar turlari. Fuqarolik huquqlari ob'ektlarining turi sifatida - ko‘rsatilgan ish va xizmatlar. Nomoddiy ne'matlar tushunchasi va turlari. Intellektual faoliyat natijalari. SHaxsiy-nomulkiy huquqlar tushunchasi va turlari. SHa'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro‘sini himoya qilish.

Bitimlar. Vakillik va ishonchnoma

Bitim tushunchasi va turlari. Bitimning boshqa yuridik faktlardan farqi. Bitim shakllari. Ko‘chmas mulkka oid bitimlarning o‘ziga xos xususiyatlari. Bitimlarning haqiqiy sanalish shartlari. Nizoli bitimlar. O‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimlar Bitimni haqiqiy emas deb hisoblash payti. Bitimning bir qismi haqiqiy emasligi oqibatlari. Bitimlarni haqiqiy emas deb topish natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar (restitutsiya tushunchasi va uning qo‘llanish shartlari). Rieltorlik bitimlari. Birja bitimlari.

Vakillik tushunchasi, ahamiyati va belgilash asoslari. Vakillik turlari (qonuniy vakillik, sud qarori, davlat organlari qarori, shartnomadan kelib chiqadigan vakillik). Vakolatsiz vakillik. Ishonchnoma. Ishonchnoma shakli. Ishonchnoma muddati. Ishonchnoma olgan shaxsning

ishonchnoma bekor bo‘lganidan keyin qilgan harakatlari. Ishonchnomani qaytarish majburiyati.

Muddatlar. Da’vo muddati

Fuqarolik huquqida muddatlar tushunchasi va ahamiyati. Fuqarolik huquqiga oid yuridik faktlar tizimida muddatlarning o‘rni. Muddatlarning turlari. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish muddatlari. Sub’ektiv huquqning mavjud bo‘lish muddatlari. Kafolat muddatlari, talablarga e’tiroz bildirish muddatlari. Fuqarolik huquqiy burchlarni ijro etish muddatlari. Burchlarni ijro etishning davlat buyurtmalarida va shartnomalarida belgilanadigan muddatlar. Umumiy va maxsus muddatlar. Muddatni belgilash. Vaqt davri bilan belgilangan muddatning boshlanishi. Vaqt davri bilan belgilangan muddatning tamom bo‘lishi. Muddatning oxirgi kunida harakatni amalga oshirish tartibi. Fuqarolik huquqlarini himoya qilish muddatlari. Da’vo muddati tushunchasi va ahamiyati.

Da’vo muddatining turlari. Umumiy da’vo muddati. Maxsus da’vo muddati. Qonun va qonun osti hujjatlaridagi maxsus da’vo muddatlari. Da’vo muddatini qo‘llash. Da’vo muddatining o‘ta boshlashi. Majburiyatda shaxslar almashinganda da’vo muddati. Da’vo muddati o‘tishining to‘xtatilishi. Da’vo muddati o‘tishining uzilishi. Da’vo ko‘rilmasdan qoldirilgan taqdirda, da’vo muddatining o‘tishi. Da’vo muddatini tiklash. Maxsus da’vo muddatining to‘xtatilishi, uzilishi va tiklash. Da’vo muddati o‘tgandan keyin majburiyatni bajarish. Qo‘shimcha talblarga nisbatan da’vo muddatini qo‘llash. Da’vo muddati joriy qilinmaydigan talablar. Mamlakat mustaqilligi e’lon qilinishidan oldin uning chegaralaridan tashqariga olib chiqib ketilgan tarixiy, madaniy va ilmiy-badiiy qiymatga ega bo‘lgan mol-mulk hamda boshqa qimmatbaho ob’ektlarni qaytarib berish haqidagi talablar – da’vo muddati joriy qilinmaydigan talablar sifatida.

Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar

Mulk tushunchasi. Mulkning iqtisodiy ma’nodagi tushunchasi. Mulk huquqi tushunchasi. Ob’ektiv va sub’ektiv ma’nodagi mulk huquqi tushunchasi. Mulk egasining huquqlari. Mulk shakllari. Mulkchilik munosabatlari va shakllarini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari, uni amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasining roli. Mulk huquqining sub’ektlari. Mulk huquqining ob’ektlari. Mulk huquqini amalga oshirish shartlari. Mulkning daxlsizligi. Iqtisodiyot samarali amal qilishiga va xalq farovonligining o‘sishiga yordam beradigan har qanday shakldagi mulkchilik bo‘lishiga ruxsat berilishi. Mulkchilikning hamma shakllari himoya qilinishi. Mulkdor o‘z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo‘lmagan har qanday xatti-harakatlarni o‘z xohishiga ko‘ra sodir etishga haqliligi. Har kimning mulkdor bo‘lishga haqli ekanligi. Mol-mulkni saqlash vazifasi. Mol-mulkning tasodifan nobud bo‘lish yoki buzilish xavfi. Ashyoviy huquqlar tushunchasi va turlari. Xo‘jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi. Meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi. Yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi. Servitutlar. Mulk huquqining vujudga kelish asoslari. Dastlabki va hosila mulk huquqi. Mulkni yaratish va ko‘paytirish. Bitim bo‘yicha mol-mulkni olish. SHartnoma asosida mol-mulk oluvchida mulk huquqining vujudga kelish payti. Ashyolarni topshirish. Egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat. Yer uchastkasiga bo‘lgan mulk huquqi. Hamma yig‘ib olishi mumkin bo‘lgan ashyolarni mulkka aylantirish. Tarix va madaniyat yodgorliklarini xo‘jasizlarcha saqlash. Egasiz ashyo. Topilma. Topilmaga egalik huquqini olish. Topilma bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash va ashyoni topib olgan shaxsni taqdirlash. Qarovsiz hayvonlar. Xazina. Mulk huquqining bekor bo‘lish asoslari. Mol-mulkni tugatish va hisobdan chiqarish. Mol-mulkni mulkdordan olib qo‘yish. Qarzni nizosiz tartibda undirib olish. Qimmatbaho metallar va toshlarga mulk huquqining vujudga kelishi hamda bekor bo‘lishi xususiyatlari. Natsionalizatsiya. Rekvizitsiya. Musodara. Mol-mulkni olib qo‘yish chog‘ida uning qiymatini aniqlash va zararlarni undirib olish huquqi. Mulkdorning mol-mulkini bevosita olib qo‘yishga qaratilmagan holda mulk huquqini bekor qilinishi. Xorijiy davlatlar qonunchiligi bo‘yicha mulk huquqi.

Xususiy mulk

Xususiy mulk moddiy boyliklarni yakka tartibda o‘zlashtirishning shakli sifatida. Xususiy mulk

huquqi tushunchasi. Xususiy mulk xususiyatlari. Xususiy mulk huquqining sub'ektlari. Xususiy mulk huquqining ob'ektlari. Uy-joyga nisbatan mulk huquqining vujudga kelish tartibi. Ko'p kvartirali uydagi turar joylar va yashash uchun mo'ljallanmagan joylar mulkdorlarining umumiy mol-mulki. O'zboshimchalik bilan imorat qurish va uning oqibatlari. Fuqarolar xususiy mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo'lish asoslari. Nodavlat yuridik shaxslarning xususiy mulk huquqi tushunchasi, mazmuni va turlari. Nodavlat yuridik shaxslarning xususiy mulk huquqi, sub'ektlari, ob'ektlari, vujudga kelish va bekor bo'lish asoslari. Xususiy mulk huquqini tartibga soluvchi va mustahkamlovchi qonun hujjatlarini takomillashtirish masalalari.

Ommaviy mulk. Umumiy mulk

Mulk islohotini amalga oshirish natijasida mulkchilik munosabatlarida bo'lgan o'zgarishlar. Ommaviy mulk huquqi tushunchasi. Ommaviy mulk huquqi sub'ektlari. Respublika mulki va munitsipal mulk, shakllanish tartiblari. Davlat korxonalari ixtiyoriga ajratilgan davlat mulkiga nisbatan ularning huquqlari. Ommaviy mulk huquqining mazmuni. Ommaviy mulk huquqining ob'ektlari. Davlatga qarashli ayrim mulklarning huquqiy holati. Ommaviy mulk huquqining vujudga kelish va bekor bo'lish asoslari. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. Xususiylashtirish dasturlari.

Umumiy mulk huquqi tushunchasi va ahamiyati. Umumiy mulk huquqining vujudga kelish asoslari. Umumiy mulkning turlari. Ulushli va birgalikdagi mulk. Ulushli mulkdagi ulushlarni aniqlash. Ulushli mulkdagi umumiy mol-mulkka egalik qilish va undan foydalanish, tasarruf etish. Ulushli mulkdagi mol-mulkdan foydalanish natijasida keladigan hosil, mahsulot va daromadlar. Umumiy ulushli mulkdagi mol-mulkni saqlash harajatlarini taqsimlash. Umumiy mulk huquqidagi ulushning shartnoma bo'yicha oluvchiga o'tish payti. Ulushli mulkdagi mol-mulkni taqsimlash va undan ulush ajratish. Imtiyozli sotib olish huquqi. Birgalikdagi mulk bo'lgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish. Birgalikdagi mulk bo'lgan mol-mulkni taqsimlash va undan ulush ajratish.

Mulk huquqini va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qilish

Mulkni himoya qilishning ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'yicha fuqarolar mulkini qo'riqlash va mustahkamlashga bo'lgan burchlari. Mulk huquqini fuqarolik-huquqiy usullar bilan himoya qilinishi. Mulk huquqining kafolati. Mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish (vindikatsion da'vo). Mol-mulkni insofli egallovchidan talab qilib olish. Mol-mulk boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olingan daromadlar va xarajatlarni to'lash. Mulkdorning huquqlarini egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan huquqbuzarliklardan himoya qilish (negator da'vo). Mulkdor bo'lmagan eganing huquqlarini himoya qilish. Mulk huquqining qonunga muvofiq bekor bo'lish oqibatlari.

Majburiyat tushunchasi va mazmuni

Bozor munosabatlari sharoitida majburiyatlarning xususiyatlari. Majburiyat tushunchasi. Majburiyat huquqi tushunchasi va taraflari. Majburiyatlarning mazmuni. Majburiyatlarning turlari. Muqobil majburiyatlar. Majburiyatda sanktsiya masalasi. Majburiyatlarning vujudga kelish asoslari. SHerikli, ulushli va qo'shimcha majburiyatlar. Majburiyat
da shaxslarning almashinishi. Qaytarma (regress) majburiyat. Majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishi. Kreditor huquqlarining boshqa shaxsga o'tish asoslari va tartibi. Boshqa shaxsga o'tadigan kreditor huquqlarining hajmi. Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartlari va shakli. Qarzni va ijroni boshqa shaxsga o'tkazish.

Majburiyatlarni bajarish

Majburiyatlarni bajarish tushunchasi. Bajarish predmeti. Majburiyatlarni bajarish tamoyillari. Ijro sub'ektlari. Majburiyatni bajarish muddati. Pul majburiyatlarining valyutasi. Majburiyatni bajarish joyi. Muqobil majburiyatni bajarish. Bir necha kreditor yoki bir necha qarzdor ishtirok etadigan majburiyatni bajarish. Solidar qarzdorning kreditor talablariga qarshi e'tirozlari. Solidar majburiyatning qarzdorlardan biri tomonidan bajarilishi. Solidar talablar. Majburiyatlarni muqobil sur'atda bajarish. Majburiyatning bajarilganligini tasdiqlash. Majburiyat bajarilganligini tasdiqlash haqidagi talabni bajarmaslik oqibatlari.

Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash

Majburiyatning bajarilishini ta’minlash tushunchasi va turlari. Neustoyka tushunchasi va uning ahamiyati. Neustoyka shakllari. Garov tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari. Garov turlari. O‘zbekiston Respublikasining Garov, Ipoteka to‘g‘risidagi qonunlari. Qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish. Kafillik. Kafolat. Zakalat.

Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik. Majburiyatlarning bekor bo‘lishi

Majburiyatning buzilishi tushunchasi va oqibatlari. Majburiyatlarni bajarmaslik va lozim darajada bajarmaslik. Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasi. Neustoyka va zarar. Zararni to‘la hajmda qoplash tamoyili. Majburiyatlar bo‘yicha javobgarlik hajmini cheklash. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik belgilanishi, shartlari. Fuqarolik huquqbuzarlik tarkibi, tushunchasi. Qarzdorning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari javobgarlikning belgilanishi sharti sifatida ko‘rilishi. Xatti-harakat bilan yuz bergan natija o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni-javobgarlikning sharti sifatida ko‘rilishi. Javobgarlik belgilash uchun aybning mavjud bo‘lish sharti. Uchinchi shaxslarning harakati uchun qarzdorning javobgarligi. Qarzdorni javobgarlikdan ozod qilish asoslari. Tasodifiy hol va qaytarib bo‘lmaydigan kuch tushunchasi. “Fors-major” tushunchasi. Kreditorning aybi va uning oqibatlari. Hissali, sheriklik va subsidiar javobgarlik. Qaytarma (regress) talablar bo‘yicha javobgarlik. Ijroning qarzdor va kreditor tomonidan kechiktirib yuborilishi. Kreditorning ijroni kechiktirib yuborish oqibatlari. Ijroning kechiktirib yuborilganligi uchun kreditorni javobgarlikdan ozod qilish.

Majburiyatlarning bekor bo‘lish asoslari. Majburiyatning bajarilishi bilan bekor bo‘lishi.

Shartnoma to‘g‘risida umumiy qoidalar

Bozor munosabatlari sharoitida shartnoma tushunchasi va ahamiyati. SHartnoma – tomonlarning o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi vosita sifatida. SHartnoma va bitim o‘rtasidagi nisbat. SHartnoma tuzish erkinligi. SHartnomaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risidagi qonun va uning ahamiyati. SHartnomalarning turlari. Bir tomonlama, ikki va ko‘p tomonlama, haq evaziga va tekinga tuziladigan shartnomalar. Real va konsensual shartnomalar. Ommaviy shartnoma. Qo‘shilish shartnomasi. Dastlabki shartnoma. Uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnoma. Xo‘jalik shartnomalari. SHartnoma mazmuni. SHartnoma mazmuni tushunchasi. SHartnomaning asosiy shartlari (bandlari). SHartnomaning namunaviy shartlari. SHartnomaning odatdagi shartlari. SHartnomaning tasodifiy shartlari. SHartnomaning boshqa bandlari. SHartnomani sharhlash. SHartnomaning bekor qilinishi hollari. SHartnoma tuzish to‘g‘risidagi asosiy qoidalar. SHartnomaning tuzilish payti. SHartnomaning shakliga qo‘yiladigan talablar. Og‘zaki shartnomalar. Yozma shartnomalar. Notarial tasdiqlanishi zarur bo‘lgan shartnomalar. SHartnomalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish. SHartnoma matnini shakllantirish. SHartnomada taraflar manfaatining aks etishi. Oferta tushunchasi. Oferta shartlari. Ofertaning to‘liq va pisandasiz bo‘lishi. Ofertaning chaqirib olinmasligi. Ofertaga taklif etish. Ommaviy oferta. Reklama oferta sifatida. Aktsept tushunchasi va mazmuni. SHartnomaning tuzilgan joyi.

Oldi-sotdi shartnomasi

Bozor munosabatlari sharoitida oldi-sotdi shartnomasining ahamiyati va majburiyatlar tizimida tutgan o‘rni. Oldi-sotdi shartnomasining xalqaro munosabatlardagi o‘rni. SHartnoma tushunchasi va huquqiy belgilari. SHartnoma predmeti, shartnomaning asosiy shartlari, shartnoma bahosi, shartnomada qatnashuvchi taraflar, ularning huquq va majburiyatlari, tovarning sifati va miqdori, butligi, idish va o‘rami, haq to‘lash tartibi, tovarni nasiyaga sotish, oluvchida tovarga nisbatan mulk huquqining paydo bo‘lish payti. SHartnomaning tovar to‘g‘risidagi sharti. Tovarni uchinchi shaxs huquqlaridan ozod holda topshirish majburiyati. Tovarni mansub ashyo va hujjatlar bilan birga topshirish. Tovar haqini to‘lash majburiyati. Tovarni topshirish majburiyatini bajarish payti. Sotuvchining sotilgan mol-mulkni saqlash majburiyati. Tovarning tasodifan nobud bo‘lishi yoki tasodifan shikastlanishi xavfining o‘tishi. Tovarni olib qo‘yish to‘g‘risida da’vo qilingan taqdirda sotib oluvchi va sotuvchining majburiyatlari. Sotib oluvchidan tovar olib qo‘yilgan taqdirda sotuvchining javobgarligi.

Sotuvchi tovarni topshirishdan bosh tortishining oqibatlari. SHartnomaning tovar miqdori to‘g‘risidagi shartlarini buzish oqibatlari. Oldi-sotdi shartnomasi shartlarini buzganlik uchun taraflarning javobgarligi. Tovarlarni ulgurji oldi-sotdisining xususiyatlari.

Chakana oldi-sotdi shartnomasi

Oldi-sotdi shartnomasining alohida turlari: chakana oldi-sotdi shartnomasi. Chakana oldi-sotdi shartnomasining tushunchasi, mohiyati, huquqiy belgilari va shartlari. Amaldagi qonunchilik bilan chakana oldi-sotdi munosobatlarining tartibga solinishi (bozor va yarmarka qoidalari). Chakana oldi-sotdi shartnomasida iste’molchilar huquqlarini ximoya qilish. Tovarning sotib oluvchi tomonidan belgilangan muddatda qabul qilib olish sharti bilan sotish. Tovarni namuna bo‘yicha sotish. Avtomatdan foydalangan holda tovar sotish. Tovar bahosi va uning haqini to‘lash. Chakana savdo qoidalari.

Mahsulot yetkazib berish shartnomasi

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda mahsulotni yetkazib berish shartnomasi ahamiyati. SHartnoma tushunchasi, huquqiy belgilari. SHartnoma tuzish tartibi, muddatlari, shartnomada qatnashuvchi taraflari va ularning huquq va majburiyatlari, shartnomani ijro etish, shartnomada qatnashuvchi taraflarning shartnoma shartlarini buzganlik uchun javobgarligi.

Tovarlar yetkazib berish bo‘yicha davlat kontrakti

Davlat buyurtmasi tushunchasi, davlat kontrakti (shartnomasi) tuzish asoslari va tartibi, ularni ijro etish, davlat ehtiyojlari uchun tovar yetkazib berish shartnomalarni tuzish, davlat kontraktini ijro etish yuzasidan vujudga kelgan zararni qoplash. Tovarlar yetkazib berish bo‘yicha davlat kontrakti natijasida yuzaga keladigan zararlarni davlat tomonidan qoplanishi.

Kontraktatsiya shartnomasi

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishda kontraktatsiya shartnomasining mohiyati va ahamiyati, shartnoma tushunchasi, asosiy huquqiy belgilari, shartnomani tuzish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi, shartnomada qatnashuvchi taraflar. SHartnoma predmeti, paxta, g‘alla va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlarining shartnoma predmeti sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari, taraflarning huquq va majburiyatlari, shartnoma shartlarini buzganlik uchun taraflarning javobgarligi va javobgarlikdan ozod qilish asoslari. Davlat buyurtmasi asosida tuziladigan kontraktatsiya shartnomasi bo‘yicha javobgarlik turlari.

Energiya ta’minoti shartnomasi

Energiya ta’minoti shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari, shartnomada qatnashuvchi taraflar, energiya bilan ta’minlovchi tashkilot, abonent. Energiya ta’minoti sohasida davlat siyosatining asoslari. Energiya ta’minoti shartnomasida iste’molchilar huquqlarini ximoya qilish SHartnoma bo‘yicha taraflarning huquq va majburiyatlari, energiya sifati, miqdori, energiya haqini to‘lash, shartnoma tuzish va o‘zgartirish, bekor qilish tartibi, shartnoma shartlarini buzganlik uchun taraflarning javobgarligi.

Ko‘chmas mulkni sotish, korxonani sotish. Ayirboshlash shartnomasi

Ko‘chmas mulk oldi-sotdi shartnomasining o‘ziga xos xususiyatlari, turar-joy, yer uchastkasi oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirish tartibi. Sotib oluvchining huquqlari va sifati lozim darajada bo‘lmagan ko‘chmas mulkni topshirishda javobgarlik. Korxonani sotish shartnomasi. Korxonani sotish shartnomasining shakli va uni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish. sotiladigan korxona tarkibini aniqlash va qiymatini baholash. Transport vositalarini sotish shartnomasi. Ayirboshlash shartnomasi tushunchasi va uning huquqiy belgilari, shartnoma predmeti, baholari va boshqa harajatlar, taraflarning huquq va burchlari. SHartnoma bo‘yicha javobgarlik.

Hadya shartnomasi

Hadya shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari. Hadya predmeti sifatida ashyo, mulk huquqi, mulkiy majburiyatdan ozod qilish, shartnoma ishtirokchilari. Hadya shartnomasini ijro etish va ijro majburiy bo‘lgan holatlar. Hadyani cheklash. Bajarishdan bosh tortish, bekor qilish asoslari, hadya va’da qilinganda huquqiy vorislik. Xayr-ehson tushunchasi va uning

huquqiy belgilari, hadyadan farqi, xayr-ehson qiluvchi va qabul qiluvchi. Xayr-ehsonni tayinlash maqsadlariga rioya qilmaslik oqibatlari.

Renta

Renta shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari, renta turlari. Renta shakli. Renta to‘lash sharti bilan mol-mulkni boshqa shaxslarga berish, taraflarning javobgarligi. Doimiy renta, shakli, miqdori, to‘lovchini doimiy rentani sotib olish huquqi va uni amalga oshirish tartibi, sotib olish bahosi. Umrbod renta: umrbod rentaning qo‘llanish sohalari, renta oluvchilarning huquqlari, renta miqdori va uni to‘lash muddatlari, umrbod rentani bekor bo‘lish asoslari.

Umrbod ta’minlash sharti bilan uy-joy (kvartira) ni boshqa shaxsga berish shartnomasi

Umrbod ta’minlash sharti bilan uy-joy (kvartira) ni boshqa shaxsga berish shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari, shakli, shartlari. SHartnoma yuzasidan taraflarning huquq va majburiyatlari. Umrbod ta’minlash sharti bilan uy-joy (kvartira) ni boshqa shaxsga berish shartnomasini o‘zgartirish va bekor qilish asoslari. Umrbod ta’minlash sharti bilan uy-joy (kvartira) ni boshqa shaxsga berish shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarning vorislarga o‘tishi.

Mulk ijarasi shartnomasi

Mulk ijarasi shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari, mulk ijarasi ob’ektlari va sub’ektlari, shartnoma shakli va muddatlari, Ijara haqi va uni to‘lash tartibi. Ijaraga oluvchining huquq va majburiyatlari. Ijaraga olingan mol-mulkni yaxshilash oqibatlari. SHartnomani o‘zgartirish va bekor bo‘lish asoslari. SHartnoma shartlarini buzganlik uchun taraflarning javobgarligi.

Prokat shartnomasi

Prokat shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari, shartnoma predmeti, muddati. Taraflarning huquq va majburiyatlari. Ijarachiga mol-mulkni topshirish. Ijaraga topshirilgan mol-mulkdagi kamchiliklarni bartaraf etish. Prokat shartnomasi bo‘yicha mol-mulkdan foydalanganlik haqi. Ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish. Prokat shartnomasida iste’molchilar huquqlarini ximoya qilish.

Mulk ijarasi shartnomasining alohida turlari

Mulk ijarasi shartnomasi tushunchasi. Mulk ijarasi ob’ektlari. Ijaraga topshirilayotgan mol-mulkka nisbatan uchinchi shaxslarning huquqlari. Taraflar o‘zgarganda mol-mulk ijarasi shartnomasining o‘z kuchida qolishi. Ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish. Ijaraga olingan mol-mulkni tasarruf qilish. Ijaraga olingan mol-mulkni yaxshilash, sotib olish. Transport vositalari ijarasi shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari. SHartnoma turlari: transport vositasini ekipajsiz ijaraga berish va transport vositasini ekipaji bilan ijaraga berish. Transport vositasiga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik. Transport vositasi bilan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik. Binolar va inshootlar ijarasi shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari. Binolar va inshootlar joylashgan yer uchastkasiga bo‘lgan mulk huquqi. Servitut huquqi va boshqa huquqlar. Taraflarning huquq va majburiyatlari. Korxona – ijara predmeti sifatida. Korxonani ijaraga berish shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari.

Lizing shartnomasi

Lizing shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va shartnomaning bozor munosabatlari sharoitidagi ahamiyati. Lizing sub’ektlari: lizing oluvchi, lizing beruvchi, sotuvchi, ishlab chiqaruvchi. Lizing ob’ektlari. Lizing to‘lovi. Lizing shartnomasini tuzish tartibi va shartlari. Lizing oluvchi, beruvchi va sotuvchining huquq va majburiyatlari, javobgarligi. Qo‘shimcha lizing. Lizing munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilikning liberallashuvi.

Uy-joy ijarasi shartnomasi

Uy-joy ijarasi shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari. SHartnomaning shakli. SHartnomani tuzish tartibi. Uy-joy ijarasi shartnomasining o‘ziga xos xususiyatlari. Uy-joy

ijarasi shartnomasida taraflarning huquq va burchlari. Ijara haqi. Uy-joy ijarasi shartnomasining bekor bo‘lishi. Ikkilamchi ijara. Uy-joy ijarasi bo‘yicha taraflarning javobgarligi. Uy-joy ijarasi munosabatlarini tartibga solishda Fuqarolik va Uy-joy kodeksi me’yorlarining uzviy bog‘liqligi**.**

Tekin foydalanish shartnomasi

Tekin foydalanish (ssuda) shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari. Ssuda shartnomasi bo‘yicha taraflar, ularning huquq va majburiyatlari. SHartnomani muddatidan oldin bekor bo‘lish asoslari. SHartnoma shartlarini o‘zgartirish va tugatish tartibi.

Pudrat shartnomasi

Pudrat to‘g‘risidagi umumiy qoidalar. SHartnoma tushunchasi va huquqiy belgilari. SHartnoma tuzish tartibi. Pudrat bo‘yicha bajariladigan ishlar. Pudrat shartnomasida qatnashuvchi taraflar: bosh pudratchi, yordamchi pudratchi. Ishni bajarish muddatlari va bahosi. Pudrat shartnomasining mazmuni va shartnomaning muhim elementlari.

Maishiy pudrat shartnomasi

Maishiy pudrat shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari. Buyurtmachi huquqlarining kafolati. Buyurtmachining materiallari asosida ishni bajarish qoidalari. Maishiy pudrat shartnomasida iste’molchilar huquqlarini ximoya qilish Bajarilgan ishdagi kamchiliklarning mavjudligini aniqlash oqibatlari. Taraflarning javobgarligi.

Qurilish pudrati shartnomasi

Qurilish pudrati munosabatlarini rivojlantirish borasidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan qabul qilingan hujjatlarning mohiyati va ahamiyati. Qurilish pudrati shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va shartnomani tuzish tartibi. SHartnoma yuzasidan taraflar (buyurtmachi va pudratchi) ning huquq va majburiyatlari. Bajarilayotgan ishlarning xavfsizligi uchun javobgarlik. Qurilish ob’ektini sug‘urtalash. Loyiha-smeta hujjatlari, ularga o‘zgartirish kiritish tartibi. Qurilishni materiallar va uskunalar bilan ta’minlash. Ishga haq to‘lash.

Loyiha va qidiruv ishlari pudrati shartnomasi

Loyiha va qidiruv ishlari pudrati shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari. Loyiha va qidiruv ishlari uchun boshlang‘ich ma’lumotlar. SHartnomada qatnashuvchi taraflarning huquq va majburiyatlari. Pudratchining kafolatlari. Pudratchining hujjatlar va ishlardagi kamchiliklar uchun javobgarligi.

Ilmiy-tekshirish, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlari pudrati shartnomasi

Ilmiy-tekshirish, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlari pudrati shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari. Uning boshqa pudrat shartnomalaridan farqi. SHartnoma to‘g‘risidagi ma’lumotlarning maxfiyligi. Ijobiy natijaga erishib bo‘lmaslik oqibatlari. Taraflarning javobgarligi.

Haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi

Haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi tushunchasi va uning huquqiy belgilari. Xizmat turlari: aloqa xizmati, tibbiy, veterinariya, auditorlik, maslahat, axborot xizmatlari, ta’lim berish xizmati, sayyohlik xizmati va boshqa xizmatlar. Haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasida iste’molchilar huquqlarini ximoya qilish. Xizmat ko‘rsatishni amalga oshirish tartibi. Xizmatlarga haq to‘lash tartibi. SHartnoma shartlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Yo‘lovchi, bagaj va yuk tashish shartnomasi

Yo‘lovchi, bagaj va yuk tashishning umumiy qoidalari. Yo‘lovchi tashish shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari. SHartnoma turlari: yuk tashish shartnomasi, charter (fraxtlash) shartnomasi. Yo‘lovchi, bagaj va yuk tashish shartnomasida iste’molchilar huquqlarini ximoya qilish SHartnoma shartlarini buzganlik uchun taraflarning javobgarligi. SHartnomada

muddatlar..

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va mazmuni. SHartnoma bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha xizmatlar. SHartnoma shartlarini buzganlik uchun taraflarning javobgarligi.

Qarz shartnomasi. Kredit shartnomasi.

Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash (faktoring) shartnomasi

Qarz shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari SHartnoma shakli. Qarz shartnomasi bo‘yicha foizlar. Aniq maqsadli qarz. Qarzni guvohlantirish vositalari: veksel, obligatsiya, davlat zayomi. Qarz shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlari. Kredit shartnomasi tushunchasi. Kredit berish tamoyillari va huquqiy belgilari. SHartnoma shakli. Kredit turlari: ashyolarni kreditga berish; tijorat krediti. Kredit shartnomasi bo‘yicha taraflarning huquq va majburiyatlari. Kreditni ta’minlash usullari. Faktoring shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari. SHartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari.

Bank omonati shartnomasi. Bank hisobvarag‘i shartnomasi

Bank omonati shartnomasi tushunchasi, turlari va huquqiy belgilari. SHartnoma shakli, omonatga to‘lanadigan foizlar. Omonatni qaytarish kafolatlari. Bank omonati shartnomasida iste’molchilar huquqlarini ximoya qilish Bank hisobvarag‘i shartnomasi tushunchasi va uning huquqiy belgilari. SHartnomada taraflar, ularning huquq va majburiyatlari.

Hisob-kitoblar

Hisob-kitoblar to‘g‘risidagi umumiy qoidalar. Hisob-kitob turlari: naqd pullar bilan, to‘lov topshiriqnomasi, akkreditiv, inkasso, cheklar bilan hisob-kitob qilish.

Topshiriq shartnomasi. Begona shaxsning manfaatini ko‘zlab topshiriqsiz harakat qilish Topshiriq shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va shakli. SHartnomada qatnashuvchi taraflar, ularning huquq va majburiyatlari. Begona shaxsning manfaatlarini ko‘zlab topshiriqsiz harakat qilish shartlari. Boshqa shaxsning manfaatini ko‘zlab bitim tuzish va uning huquqiy oqibatlari.

Vositachilik shartnomasi. Mol-mulkni ishonchli boshqarish

Vositachilik shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari. SHartnomada taraflar, ularning huquq va majburiyatlari. Vositachilik savdosining o‘ziga xos xususiyatlari. Distribyutorlik shartnomalari. Mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari. Shartnomaning qo‘llanish sohasi.

Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing) shartnomasi

Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari. SHartnoma shartlarini belgilashda intellektual mulk huquqi normalaridan foydalanish. SHartnomada taraflar, ularning huquq va majburiyatlari. Shartnomani cheklaydigan shartlar.

Omonat saqlash shartnomasi

Omonat saqlash shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari, shakli. Omonat saqlash shartnomasida taraflar, ularning huquq va majburiyatlari. Ashyolarni egasizlantirib saqlash, xavfli xossalarga ega bo‘lgan ashyolarni saqlash. Omonat saqlovchiga yetkazilgan zararni qoplash.

Omonat saqlashning alohida turlari

Lombardda omonat saqlash shartlari. Boyliklarni bankda saqlash. Ashyolarni transport tashkilotlari yukxonalarida saqlash. Ashyolarni tashkilotlarning kiyim xonalarida saqlash. Ashyolarni mehmonxonalarda saqlash. Nizoli ashyolarni saqlash (sekvestr). Tovar omborida omonat saqlash. Tovar ombori tushunchasi. Omborda omonat saqlash tushunchasi va huquqiy

belgilari. Saqlovchining majburiyatlari.

Sug‘urta shartnomasi

Sug‘urta tushunchasi va turlari. Bozor munosabatlari sharoitida sug‘urtaning ahamiyati. Ixtiyoriy va majburiy sug‘urta. Mulkiy sug‘urta shartnomasining predmeti. Sug‘urtalashga yo‘l qo‘yilmaydigan manfaatlar. SHaxsiy sug‘urta shartnomasi. Majburiy sug‘urta va uni qo‘llanish sohalari. Sug‘urta munosabatlarida taraflar: sug‘urtalovchi, sug‘urta qiluvchi va naf oluvchi. Sug‘urta shartnomasining shakli va shartlari. Sug‘urta polisi. Sug‘urta siri. Sug‘urta puli. Mol-mulkning sug‘urta qiymati.

Oddiy shirkat shartnomasi. Ommaviy tanlov. Mukofotni oshkora va’da qilish. Qimor va garov o‘yinlar o‘tkazish

Oddiy shirkat shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari. SHartnomaning huquqiy va mulkiy asoslari. SHeriklarning umumiy ishlarni yuritish tartibi, ularning o‘zaro huquq va majburiyatlari. Umumiy xarajatlar, zararlar va javobgarlik. Foydani taqsimlash. SHartnomani bekor bo‘lish asoslari va uning oqibatlari. Yashirin shirkat. Ommaviy tanlovni tashkil etish. Ommaviy tanlov shartlari, uni o‘zgartirish, bekor qilish tartibi. Mukofot. Ommaviy tanlovda g‘olib chiqqan fan, adabiyot, san’at asarlaridan foydalanish tartibi. Ommaviy tanlov tashkilotchisi, ishtirokchilari va g‘oliblari. Mukofotni oshkora va’da qilish tushunchasi. Mukofot to‘lash majburiyati. Mukofot haqidagi oshkora va’dani bekor qilish tartibi. Qimor va garov o‘yinlar o‘tkazish. Qimor va garov o‘yinlar uyushtirish hamda ularda ishtirok etish bilan bog‘liq talablarni sudda himoya qilish shartlari. Lotereyalar, totalizatorlar va boshqa o‘yinlarni davlat tomonidan o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari. Yutuqni topshirish majburiyati.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning umumiy qoidalari. Javobgarlikning umumiy asoslari. Zaruriy mudofaa holatida va oxirgi zarurat holatida zarar yetkazish uchun javobgarlik. Yuridik shaxsning yoki fuqaroning o‘z xodimi tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarligi. Davlat idoralari va mansabdor shaxslar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik. Huquq-tartibot idoralarining qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlik. Muomalaga layoqatsizlar, muomala layoqati cheklanganlar, voyaga yetmagan bolalar va o‘smirlar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik. Oshiqcha xavf manbai tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik. Ayb. Zarar va uning tarkibi. Harakatning huquqqa xilofligi. Qilmish bilan zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish. Javobgarlikdan ozod qilish asoslari. Zarar yetkazilgan shaxsga nisbatan regress huquqi. Zarar o‘rni va uni qoplash usullari. Jabrlanuvchining aybi, zarar yetkazilgan shaxsning mulkiy holati.

Fuqaroning hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash

SHartnomalarga oid yoki boshqa majburiyatlarni bajarishda fuqaroning hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash. Sog‘liqqa shikast yetkazilganligi tufayli zararning o‘rnini qoplash hajmi, xususiyati, muddati. Sog‘liqqa shikast yetkazilishi natijasida yo‘qotilgan ish haqini (daromadini) aniqlash. Voyaga yetmagan shaxsning sog‘lig‘iga shikast yetkazilganda zarar o‘rnini qoplash. Boquvchisi vafot etgan taqdirda ko‘rilgan zararni qoplash miqdori. Zarar yetkazgan shaxsning merosxo‘rlari tomonidan zararning qoplanishi. Zarar o‘rnini qoplash to‘lovlari va zarar miqdorini o‘zgartirish tartibi. Yuridik shaxs bekor qilingan taqdirda zararni qoplash.

Tovarlar, ishlar, xizmatlardagi nuqsonlar oqibatida yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash

Tovarning, ishning, xizmatning nuqsonlari oqibatida yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash asoslari. Tovarning, ishning, xizmatning nuqsonlari oqibatida yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslar. Zararni qoplash muddatlari. Zarar uchun javobgar shaxslar doirasi. Javobgarlikdan ozod qilish asoslari.

Ma’naviy zararni qoplash. Asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar

Ma’naviy zarar tushunchasi va uni qoplash. Ma’naviy zarar yetkazuvchining aybi. Aybdan qat’iy nazar, ma’naviy zarar qoplanishi shart bo‘lgan holatlar. Ma’naviy zararni qoplash usuli va shakli. Asossiz boylik orttirish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar. Asossiz orttirilgan boylikni qaytarish majburiyati. Asossiz orttirilgan boylikni qaytarish haqidagi talablarni boshqa talablar bilan o‘zaro bog‘lanishi. Asossiz orttirilgan boylikni asl holida yoki qiymat shaklida qaytarish.

## Intellektual mulk

Intellektual faoliyat tushunchasi va uning asosiy belgilari. Jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati. Intellektual mulk huquqi (moddiy, ashyoviy) ning o‘ziga xos xususiyatlari. Intellektual mulk huquqi ob’ektlari tarkibi va ularni huquqiy muhofaza etish asoslari. Internet tarmog‘idagi intellektual mulk muammolari. Intellektual mulk ob’ektlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlar. Mutlaq huquqlar (tushunchasi, mazmuni, amal qilish muddati, himoya qilish usullari, uni boshqa shaxsga o‘tkazish). Mutlaq huquq va mulk huquqi o‘rtasidagi nisbat. Intellektual mulk huquqi bilan bog‘liq shartnomaviy munosabatlar. Litsenziya shartnomasi, taraflarning huquq va majburiyatlari.

## Mualliflik huquqi. Turdosh huquqlar

Mualliflik huquqi ob’ekti va uni huquqiy muhofaza etish asoslari. Asarning ob’ektiv shakli va turlari. Mualliflik huquqi ob’ektlari hisoblanuvchi asarning qismlari, hosila va jamlama asarlar. Mualliflik huquqi ob’ektlari hisoblanmaydigan materiallar. Asar muallifi, mualliflik huquqining yuzaga kelishi. Mualliflik prezumptsiyasi. Hammualliflik. Muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari: asar muallifi deb e’tirof etilish huquqi (mualliflik huquqi), asardan muallifning haqiqiy ismi, taxallusini ko‘rsatgan holda yoxud ismini ko‘rsatmasdan, ya’ni imzosiz foydalanish yoki foydalanishga ruxsat berish huquqi (mualliflik ismiga bo‘lgan huquq), asarni har qanday shaklda oshkor qilish yoki oshkor qilishga ruxsat berish huquqi (oshkor qilishga bo‘lgan huquq), shu jumladan chaqirib olish huquqi, asarni, shu jumladan uning nomini muallifning sha’ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday tarzda buzib ko‘rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz etilishidan himoya qilish huquqi (muallif obro‘sini himoya qilish huquqi). Muallifning mulkiy huquqlari. Mualliflik huquqlari sub’ektlari, vorislarga o‘tish tartibi. Mualliflik huquqlarini cheklash asoslari, tartibi va shartlari. Xizmat asariga bo‘lgan mualliflik huquqi. Mualliflik huquqining amal qilishi. Turdosh huquqlar ob’ektlari va sub’ektlari. Ijrochining va fonogrammani tayyorlovchining huquqlari. Efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning huquqlari.

Sanoat mulkiga bo‘lgan huquq. O‘simliklarning yangi navlari va hayvonlarning yangi zotlariga bo‘lgan huquq

Sanoat mulk huquqi sub’ektlari, ob’ektlari va ularni muhofaza qilish asoslari. Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi tushunchasi, ularni huquqiy muhofaza qilish shartlari: yangilik, amaliyotda qo‘llash mumkinligi va ixtirochilik darajasiga egaligi. Ustuvorlik. Patent va guvohnoma berish tartibi, ularning amal qilish muddatlari. Mutloq huquqlar mazmuni, ularni boshqa shaxslarga o‘tkazish tartibi va asoslari. Litsenziya shartnomalari. Oddiy va mutloq litsenziya. Mualliflik huquqlari, patentga nisbatan huquqlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari. Selektsiya yutuqlari tushunchasi va turlari. Selektsiya yutug‘i muallifi huquqlari. Selektsiya yutuqlarini huquqiy muhofazaga layoqatlilik shartlari: yangilik, farqlanish, barqarorlik va o‘xshashlik. Patentni amal qilish muddati. Muvaqqat huquqiy himoya. Patentning davlat ekspertizasi. Selektsiya yutug‘i muallifi va patent egasining huquqlari va ularni huquqiy himoya qilish.

## Oshkor etilmagan axborotni noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish

Oshkor etilmagan axborot tushunchasi, turlari. Ishlab chiqarish tijorat sirlari (nou-xou). Oshkor etilmagan axborotga bo‘lgan huquqlar va ulardan g‘ayriqonuniy foydalanganlik uchun javobgarlik asoslari

Fuqarolik muomalasi qatnashchilari, tovarlar, ishlar va xizmatlarni shaxsiylashtirish

vositalari. Firma nomi, tovar belgisi (xizmat ko‘rsatish belgisi), tovar chiqarilgan joy nomi Firma nomiga nisbatan mutloq huquq, undan foydalanish tartibi. Firma nomiga bo‘lgan huquqning amal qilishi va uning bekor bo‘lishi. Tovar (xizmat) belgisi tushunchasi va uni huquqiy muhofaza qilish asoslari. Tovar belgisidan foydalanish huquqi. Tovar belgisi (xizmat ko‘rsatish belgisi) ga berilgan guvohnoma va uning amal qilish muddati. Tovar belgisiga bo‘lgan huquqni boshqa shaxsga o‘tkazish va undan foydalanishga ruxsat berish tartibi (litsenziya shartnomalari).

Vorislik huquqi

Vorislik asoslari. Umumiy birgalikdagi mol-mulk va dehqon xo‘jaligi yer uchastkasiga egalik huquqining meros bo‘lib o‘tish xususiyati. Meros ochilish tartibi, merosxo‘rlar. Noloyiq merosxo‘rlarni merosdan chetlatish.

Vorislik asoslari. Merosni egallash

Vasiyat bo‘yicha vorislik. Vasiyatnoma shakli va mazmuniga qo‘yiladigan talablar. Notarial tasdiqlangan va unga tenglashtirilgan vasiyatnomalar. Vasiyatnomani bekor qilish va o‘zgartirish tartibi. Vasiyatnomani ijro etish. Vasiyat majburiyati va uni yuklash shartlari. Qonun bo‘yicha vorislik. Qonuniy vorislik asoslari va vorislar guruhlari. Taqdim etish huquqi bo‘yicha vorislik. Meros transmissiyasi. Meros qoldiruvchi qaramog‘idagi mehnatga layoqatsiz shaxslar, er (xotin)ning huquqlari. Majburiy ulush huquqi. Merosni muhofaza qilish va uni boshqarish. Merosni egallash. Meros guvohnomasi. Merosdan voz kechish huquqi va uni cheklanishi. Vasiyat majburiyatidan voz kechish va uning huquqiy oqibatlari. Merosning taqsimlanishi. Korxonaga vorislik. Meros ulushlarining oshishi. Meros mol-mulkiga qaratiladigan harajatlar va qarzlar. Egasiz qolgan mol-mulk.

## 4. Mehnat huquqi fani bo‘yicha

Mehnat huquqi tushunchasi

Mehnat huquqi fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Mehnat huquqi tushunchasi. Mehnat huquqi bilan tartibga solinadigan Mehnatga oid ijtimoiy munosabatning tushunchasi va ularning turlari. Mehnatga oid munosabatlarni tartibga solish metodining xususiyatlari. Mehnat huquqi tarmog‘i, kursi va fanning sistemasi. Mehnat huquqining funktsiyalari.

Mehnatga oid munosabatlar

Mehnatga oid huquqiy munosabatlar tushunchasi. Mehnat sohasida jamoat munosabatlarining vujudga kelish asoslari. Mehnatga oid munosabatlarning turlari.Mehnatga oid huquqiy munosabatlarning mazmuni, mehnatga oid huquqiy munosabatlarning ob’ekti va sub’ekti.

Jamoa shartnomasi. Jamoa shartnomasi va jamoa kelishuvi tushunchasi, ahamiyati va asosiy maqsadi. Jamoa kelishuvlari. Jamoa kelishuvlarining mazmuni. Aholini ish bilan ta’minlash.

Mehnat shartnomasi

Mehnat shartnomasi tushunchasi. Mehnat shartnomasi mehnatga oid huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi asosi sifatida. Mehnat shartnomasining taraflari va mazmuni. Mehnat shartnomasi muhim va qo‘shimcha shartlari. Qonunchilikda nazarda tutilgan shartlar. Ayrim toifadagi xodimlarni ishga qabul qilishdagi qo‘shimcha kafolatlar. Mehnat shartnomasining shakli.Mehnat shartnomasini tuzish tartibi. Mehnat shartnomasini o‘zgartirish.Ta’lim tizimi xodimlari bilan tuziladigan mehnat shartnomalari va ularning mazmuni.

Mehnat shartnomasini bekor qilish

Mehnat shartnomasini bekor qilishning tasnifi. Mehnat shartnomasini bekor qilishning umumiy asoslari. Xodim tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish. Ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish.Mehnat shartnomasini bekor qilishning rasmiylashtirish va hisob-kitob qilish.Mehnat shartnomasini bekor qilishni rasmiylashtirish. Mehnat shartnomasini bekor qilish kuni. Mehnat shartnomasini bekor qilish, ishga qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan chiqarilgan buyruq bilan rasmiylashtirilish.

Ta’lim tizimi xodimlari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Ish vaqti. Dam olish vaqt.

Mehnat huquqida ish vaqti tushunchasi. Ish vaqtining huquqiy normalari. Ish kuni, ish smenasi va ish xaftasining tushunchasi va turlari. Ish vaqtining normal va qisqartirilgan muddati, to‘liqsiz ish vaqti. Ish vaqtining rejimi tushunchasi, uni belgilash tartibi. Ish vaqtini haftalik va jamlab hisobga olish. Ish vaqtidan tashqari ishlar. Ish vaqtidan tashqari ishlarga jalb qilish hollari. Ta’lim tizimi xodimlarining

ish vaqti. Dam olish vaqti tushunchasi. Dam olish vaqtini tartibga solish. Fuqarolarni dam olishini qonuniy kafolatlari. Dam olish vaqti turlari. Bayram va dam olish kunlarida xodimlami ish vaqtidan tashqari ishlarga jalb qilish asoslari va tartibi.Xodimlarga beriladigan mehnat ta’tili turlari va uni berish tartibi. Asosiy va qo‘shimcha ta’tillar. Yillik asosiy ta’tilni olish huquqini beradigan ish stajini hisoblab chiqarish. Ijtimoiy ta’tillar ulami berish tartibi Ish haqi saqlanmagan xolda beriladigan ta’tillar. Ta’lim tizimi xodimlarining dam olish vaqti

Mehnatga haq to‘lash.

Mehnatga haq to‘lash tushunchasi. Mehnatga haq to‘lash usullari, mehnatga haq to‘lashni qonun hujjatlari va lokal normativ hujjatlar bilan tartibga solish.Moddiy rag‘batlantirish mablag‘laridan mehnatga haq to‘lash. Yagona ta’rif tizimi va yagona ta’rif setkasi. Mehnatga haq to‘lash tizimi va uning turlari. Mehnatga haq to‘lash shartlarini o‘zgartirish. Ish haq to‘lash miqdori. Muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasi, qo‘shimcha to‘lovlar, normal ish vaqtidan chetga chiqgan holda bajarilgan ishlar uchun oshirilgan miqdorda to‘lanadigan haqlar.Ishda vaqtincha bo‘lmagan xodimning vazifasini bajarganlik uchun, shuningdek o‘rindoshlik asosida ish bajarilganida mehnatga haq to‘lash. Normal ish sharoitlaridan tashqari vaqtda bajarilgan ish uchun haq to‘lashi. O‘rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish. O‘rtacha oylik ish haqini to‘lash tartibi. Ish haqini to‘lash vaqti, joyi va muddati. Ish haqidan ushlab qolish. Kafolatli va kompensatsiya to‘lovlari. Ta’lim tizimi xodimlarining mehnatiga haq to‘lash.

Mehnat intizomi

Mehnat huquqiga ko‘ra mehnat intizomi tushunchasi. Mehnat intizomini mustahkamlash usullari. Xodimlar va ma’muriyatning vazifalari. Ichki mehnat tartib qoidalarini huquqiy jihatdan tartibga solish. Xodim va ish beruvchining majburiyatlari. Mehnat uchun rag‘batlantirish. Rag‘batlantirish tushunchasi, turlari va ularni qo‘llash tartibi. Moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish. Xodimning intizomiy javobgarligi va uning turlari. Intizomiy jazo ularni qo‘llash tartibi, amal qilish muddati va intizomiy jazo ustidan shikoyat qilish. Mehnat intizomini buzganlik uchun boshqa huquqiy jazo choralari.Ta’lim tizimi xodimlarining mehnat intizomi. Ish beruvchini xodimga yetkazgan moddiy javobgarligi. Ish beruvchiga yetkazilgan zarar uchun xodimning moddiy javobgarligi. Yetkazilgan zararni undirish tartibi.

Mehnat muhofazasi.

Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi. Xodimlarning mehnatini har tomonlama muhofaza qilish va sog‘lig‘ini saqlash davlatning Konstitutsion burchidir. Mehnatni muhofaza qilish institutining mazmuni. Mehnatni muhofaza qilish normalari va ishlab chiqarish sanitariya qoidalari. Ayollar mehnatini muhofaza qilish masalalari.Yoshlar mehnatini muhofaza qilish.

Mehnat nizolari

Mehnat nizolarini tushunchasi. Mehnat nizolarini mehnat nizolari komissiyalarida ko‘rish. Xodimlarning huquq va erkinliklarini qonuniy mustahkamlashda sud va huquqni muhofaza qilish organlarining roli. Mehnat nizolarini ko‘rib chiquvchi organlar. Mehnat nizolarining taalluqliligi.Mehnat nizolarini tuman (shahar) sudlarida ko‘rish. Mehnat nizolari bo‘yicha mehnat nizolari komissiyasining va sud organlari qarorini bajarish tartibi.

## Asosiy adabiyotlar


1. Усмоналиев М., Бокунов П. Жиноят ҳуқуқи. —Т.: ТДЮИ, Дарслик. Умумий қисм. “Насаф” нашриёти-2010. 664-б.
2. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикаси жиноят кодексига шархлар махсус қисм, —Т.: 2016 . – 960 б.
3. Очилов Х.Р. Хайдаров Ш.Д. Жиноят ҳуқуқи (умумий қисм). Ўқув қўлланма. —Тошкент- ТДЮУ.2018 – 172 б.
4. Алланова А.А.Жиноят хуқуқи ва бошқа хуқуқ соҳаларининг ўзаро алоқадорлиги. Тошкент-2018 йил. ТДЮУ. Монография-119 б.
5. Матмурадов Б.Д. Жиноят таркиби бўйича квалификация қилиш масалалари. Ўқув қўлланма. —Тошкент-LESSON PRESS. ТДЮУ.2019 – 104 б.
6. Одилқориев Х.Т. Маъмурий ҳуқуқ.Дарслик.ТДЮУ.Тошкент-Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги академияси.2010 йил. 640 б.
7. Хван Л.Б. Административное право Республики Узбекистан. Курс лекций. – Т.: – 2010.
8. Allgemeines Verwaltungsrecht: mit Verwaltungsprozessrecht Steffen Detterbeck. 2013.
9. Икрамов Ш.Т. Маъмурий ҳуқуқ. Дарслик. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси.Тошкент-2016 йил. 490 б.
10. Умаров Б.,Артиков Д. Маъмурий ҳуқуқ ва процесс. Ўқув қўлланма. Тошкент-2018 ТДЮУ. 105 б.
11. Муратов Серикбек Алпамисович, Мусаев Бекзод Турсунбаевич, Артиков Дилмурод Рахматуллаевич. Тошкент-“Innovatsiy-Ziyo”.-2020 йил 420 б.
12. Зокиров И. Фуқаролик ҳуқуқи. -Т.: ТДЮИ. Дарслик. 2009. -345 б.
13. Рахманқулов Ҳ.Р. Ўзбекистон Республикаси фуқаролик кодексига шархлар. 1-жилд. Тошкент-“VEKTOR- PRESS”.2010 йил 816 б.
14. Рахманқулов Х.Р. Битимлар. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2010 йил. ТДЮУ. 176 б.
15. Муаллифлар жамоаси: Усманова М.А. проф. ва бошқалар. Меҳнат ҳуқуқи. Дарслик. ТДЮУ нашриёти. 2018 йил 505 б.
16. Турсунов Йўлдош. Ўзбекистон Республикасининг меҳнат кодексига шархлар. Тошкент Адолат нашриёти. 2018 йил. 866 б.

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MAXSUS FANLARDAN ABITURIYENTLARNING BILIMLARINI BAHOLASH MEZONI**

| | |
|---|---|
| **Sinov topshirish shakli** | TEST - kompyuterda |
| **Test yechish uchun ajratilgan vaqt** | 120 daqiqa |
| **Test savollari soni** | 50 |
| **Har bir to`g`ri javob uchun ball** | 2 |
| **Maksimal ball** | 100 |
| **O`tish bali** | 55 |